



## SAFIYA OBRAZINING RAMZIY-ESTETIK MOHIYATI

**Sultonova Nilufar Narzullayevna**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

*Qarshi davlat universiteti*

*[sultonovanilufar14@gmail.com](mailto:sultonovanilufar14@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Genetik” romanidagi Safiya obrazining ramziy-estetik mohiyati tahlil qilinadi. Obrazning badiiy funksiyasi, ruhiy-psixologik qirralari hamda milliy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, Safiya obrazi orqali ayol ma’naviyati, sadoqat, sabr va insoniy fazilatlarining badiiy talqini ochib beriladi. Maqolada obrazning ramziy ma’nosi hamda yozuvchining individual uslubi asosida yaratilgan estetik tamoyillar ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

**Tayanch so‘zlar:** Ramziylik, estetik mohiyat, badiiy obraz, ayol ruhiyati, psixologizm, ma’naviy qadriyat, badiiy talqin, xarakter, poetika, milliylik, obraz poetikasi.

O‘zbek nasrida ayol obrazlarini badiiy-estetik jihatdan tasvirlash an’anasi alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy nasrda ayol ruhiyati, uning ichki kechinmalari va ma’naviy olami chuqur psixologik talqin asosida yoritilmoqda. “Genetik” romanidagi Safiya obrazi ham ana shunday murakkab va serqatlam obrazlardan biri sanaladi. Yozuvchi ushbu obraz orqali nafaqat ayol tabiatining nozik jihatlarini, balki insoniy sadoqat, sabr, matonat kabi ma’naviy qadriyatlarni ham badiiy aks ettiradi.

Safiya obrazi asarda ramziy-estetik mohiyat kasb etib, voqealar rivojida muhim badiiy vazifani bajaradi. Obrazning ruhiy olami, ichki iztiroblari hamda hayotiy qarashlari orqali muallif inson qalbidagi murakkab kechinmalarni ochib beradi. Ayniqsa, Safiya timsolida ayolning ma’naviy pokligi, fidoyiligi va ruhiy bardoshi yorqin namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan obraz nafaqat individual xarakter, balki muayyan ma’naviy-axloqiy qarashlarning ramziy ifodasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Roman bola tilidan hikoya qilinadi. Roman qahramoni boshidan kechirganlarini eslab, bayon qilar ekan, ulg‘aygandan keyingi mahallarda ham Sofiya xolasini esidan chiqarmaydi. Uning huzuriga boradi, u bilan uchrashib gaplashadi. Bunda xronikaga asoslangan syujetga munosib ravishda qahramonning hayot yo‘li ketma-ket beriladi. Ammo bu ketma-ketlikda berishning sababi, albatta, Sofiya ismining Oyni eslatishi – shu juftlik assotsiatsiyasidir. “Xolamning ismi boshqa ayollar ismiga o‘xshamasligi hayron qoldirardi. Bizning qishloqdagi ayollarning ismlari Oyniso, Turg‘unniso, Xosiyat, Nazira, Ibodat... bo‘lib, begonaroq bunday ismni hech nimadan xabari yo‘q, umrini dalada dehqonchilik bilan o‘tkazgan buvam qaydan topib qo‘ya qolgan ekan? Tabiiyki, ma’nosini ham bilmasdim. Ayol ismiga “oy” yoki “xon” qo‘shib aytilgani uchun, xolamni hamma “Sofiyaxon” yoki “Sofiyaoy” deb chaqirardi, qishloq tilida u allaqachon “Sapiya”ga aylanib ketgan edi. Sofiyaoy degan ism menga ko‘proq yoqqani uchun, tungi bulutlar orasidan ko‘ringan xayoliy

to'lin oy manzarasini yodimga soladi". Oy manzarasidan tashqari Sofiya xolasi allaqachonlardir tushida oyni ko'rgan bo'ladi. Darvoqe, birorta odam o'z ismining ma'nosini bilmasa, unga ismining ma'nosi tushuntirilsa, ko'zlari quvnab, juda mamnun bo'ladi. Xo'sh "Sofiya" nima ma'noni anglatadi? "Men ulg'ayganimda xolam kampir bo'lib qolgan edi. U nurni, u yuzlarni haligacha sog'inaman. Goho tun-kechalarda birdaniga ko'rgim kelib qoladi. Mayin jilmayishini, yuzidagi poklik va musaffolikni qo'msayman.

Ulg'aygach, u ismning mazmunidan xabar topdim. "Sofiya" – yunonchada "ilohiy donolik", arabchada "musaffolik" degan ma'nolarni anglatishini bilganimda, "Albatta, xolamga aytaman, eshitib suyunadi" deb o'ylaganman. U mahal xolamning menga mehri yanada ortgan, "polvon bolam" deb suyar edi". Bu ism muhokamasida adib Sofiya ismini Muhammad alayhissalomga borib taqalishini ilovadagi izohida "Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ayoli, Sofiya onamizga ishora" deb eslatib o'tadi. O'quvchining xayoli uzoq tarixga qarab ketadi. Shu o'rinda adib voqelik genezisini yana ham uzoqqa olib borib bog'laydi. Romanning "Genetik" deb nomlanishi, uning asosiy qahramoni shu soha mutaxassisi bo'lishi – bu alohida masala. Ammo Oymomo va Sofiya xola juftligi davomidan kelayotgan voqealar uzoq tarixga – Rasululloh (s.a.v.) zamonlariga va hatto undan ham uzoqroqqa borib taqaladi. Genetik – bu inson geni bilan mashg'ul bo'ladigan olim. Romanning syujet chizig'ida Sofiya xolaning shu soha olimiga aloqador epizodlari bor. Olim jiyani Sofiya xolasining bir tola sochini maxsus laboratoriyada tekshiradi. Natijada juda g'aroyib bir kashfiyotga duch keladi, ya'ni "dunyo olimlarining aqlini shoshirib qo'yadigan xazinaga – olam aro eng noyob, eng musaffo Momo Havo geniga ro'para" keladi. Romanda olimning yoshlik chog'laridagi voqealar sabab-natija kategoriyasiga mos ravishda asar matnida biri-birini taqozo qiladi. Qolaversa, romandan kuzatilgan asosiy maqsad o'zbek xalqining geni juda qadimlarga borib taqalishini ta'kidlash hamdir.

"Dunyo bo'ylab xalqlarning ko'chishlari va joylashishlari haqidagi turli-tuman ma'lumotlarni o'rganar ekanman, Yunon orollari genotiplari orasida yuz-ko'zi Sofiya xolam bilan quyib qo'yganday o'xshash kishilar qiyofalarini uchratdim. Oltoy tog'lari orasida yashagan kishilar bobom bilan uyqash, Tiyonshon etaklarida yashagan yana bir qadimiy jangovar xalq esa Ubay akaga qarindosh bo'lib chiqdi!

Shular yorug'ida qarasam, Sofiya xolamning, bobomning hamda o'zimning nasl yoshimizni hisoblab, natijaga aqlim ishonmadi: men aniqlagan genlar sulola yoshining ellik ikki ming yil ekanini ko'rsatib turardi!" Bitta olim tomonidan genlar ustida bajarilgan ilmiy tadqiqot xalqlar tarixini, millatlar o'tmishini qaysidir nuqtada birlashtiradi. Bunday ulkan ko'lamdagi birlashish holati, aslida, Odam ato va Momo Havodan tarqagan insoniyat uchun juda katta bir ogohlantirishni o'rta qo'yadi. Bitta ota-onadan tarqalgan inson farzandlari zaminni turli halokatlardan saqlashi kerak, insoniyatni birdamlikka chorlashdek ulkan bir g'oyalar bilan sug'orilgan bu roman har jihatdan turli yo'sindagi tadqiqotlar uchun asos beradi. Xususan, romandagi syujet modifikatsiyasi masalasida genetikning ko'rgan-kechirganlari, fandagi yutuqlarini bayon etish tarzidagi usuli ham, asarni kompozitsion qismlarga ajratilgani ham o'ziga xoslik kasb etadi. Chunki genetikning aynan tafakkur tarzida

ham o‘z ilmiy tadqiqoti jarayonida o‘tmishga tez-tez murojaat qilish, o‘z avlod-ajdodlarining hayotiga qiziqish kabi holatlar roman syujetidagi retrospeksiya bilan assotsiatsiyaning uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunos olim Azimjon Rahimov roman janrining istiqboli tug‘risida juda o‘rinli mulohazalarni ilgari suradi: “Endilikda romandagi asosiy syujetni voqealar oqimi emas, qahramonning tashqi hodisalarga reaksiyasi, shu munosabat bilan uning qalbida tug‘ilgan kechinmalar, o‘y-xayollar, xotiralar tashkil etadi. Syujetning bu kabi shaxsning ichki dunyosiga ko‘chishi inson ruhiy olamiga qiziqishning kuchayganligi natijasi bo‘lib, romanni lirizm, psixologizm bilan boyitdi, hikoyasi shaxsini faollashtirib yubordi”. Darhaqiqat, bunday xususiyatlar ayniqsa, xotiraga berilishi hamda syujet voqealari bayonida hikoyachi shaxsining faolligi Isajon Sulton romanlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning romanlari syujetida “lirizm, psixologizm bilan” boyitilgan o‘rinlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi.

“Genetik” romanida syujet dinamikasida boshqa voqealar bayoni uchun ham qahramonning o‘yga cho‘mishi, xotiraga berilishi, allanimanidir eshlari – bular orqaga chekinishga asos bo‘lib xizmat qiladi. “Insonlarning qiyofalari ham ma’lum voqea-hodisalar bilan birlashib ketgan, kimni eslamay, qaysidir voqeaga bog‘liq holda jonlanadi. Ubay akani shamollar bilan birga tasavvur qilaman, Sofiya xolam oy manzarasi bilan uyqash, Dashti Qipchoqdan kelgan suluv qiz bol va asal hosil qiladi, onamni yalpiz, rayhon hamda gul ochgan chechaklar yonida, otamni qo‘lida bolta yoki arra, kesilgan daraxt shoxlari yoki yaxshilab ag‘darilib chiqilgan maydon o‘rtasida ko‘raman. O‘zimni mana shu manzaralar ichida uchib yurgan bol arisiday tasavvur qilaman, qay manzaraga yaqinlashsam, o‘sha kattalashib, mayda-chuydalarigacha namoyon bo‘ladi”. Genetikning hikoyalarida kuzatiladigan asosiy qahramonlar Sofiya xola, Ubay aka, Dashti Qipchoqdan kelgan qiz – Intizor, Ona, Ota, bobo obrazlari sekin-asta bitta qishloq doirasidan ilmiy tadqiqotlar orqali dunyo miqyosiga chiqadi. Genetikning genlarni tekshirish natijasida kelgan xulosalarini butun dunyo konferensiyasida bayon qilar ekan, o‘z ilmiy kashfiyotidan benihoya faxr tuyadi. Zero, romandagi genetikning ma’ruzagacha kelgan yo‘lining qisman xronikal syujetga mos kelishini ham ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Isajon Sulton romanlarida syujetning asosiy xossalari saqlanib qolgani holda, yuqoridagi kabi ayrim noan’anaviy o‘zgarishlarga uchragani syujet modifikatsiyasi ko‘rsatadi. Shu bilan birga, roman voqealari bayonida syujet unsurlarining turlicha joylashtirilganligi, bunda ham o‘zgarish borligini ta’kidlash lozim. Roman ekspozitsiyada an’anaviylikni ko‘rish mumkin, biroq roman oxiridagi kulminatsiyada modifikatsiya yuz beradi. Ta’kidlash o‘rinliki, har bir sarlavha bilan alohida olingan “Ona tuproq” deb nomlangan birinchi qismi tarkibida keladigan “Sofiya xolam”, “Ubay aka”, “Bobom”, “Ilmlar makani”, “Kuz” kabi fasllarda ham alohida yaxlitlik mavjuddir. Ikkinchi qism “Genetikaga kirish” deb nomlangan bo‘lib, uning tarkibidagi fasllarda ham bayon usuliga xos bo‘lgan modifikatsiya, ya’ni nasriy asardagi nazmga xos his-tuyg‘ularning berilishi alohida ahamiyatga ega. Xususan, “Er Bug‘u”, “Er Bug‘u marsiyasi” fasllaridagi ichki kayfiyatning “men” vositasida hayajonlar bilan berilishi romanning muvaffaqiyatli



jihatlarni namoyon qiladi. Shu bilan birga, “Hukmi mutlaq” faslida mumtoz shoirning barchaga tanish:

“Tole’ yo‘qi boshimg‘a balolig‘ bo‘ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.  
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,  
YO Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?!”

Tanidingizmi?! Ha, u – Zahiriddin Muhammad Bobur. Ulug‘larimni, beklarimni, tog‘alarimni, og‘a-inilarimni munda qo‘yib, o‘zim ketdim demoqda. Sind daryosini kechib o‘tib, Hind eliga yondashdim, davlat tuzib, Tangi dinini joriy qildim... Ammo sizlardan ayrildim, demoqda...” Bunday liro-epik talqin roman syujeti tizimidagi voqealarda qatnashayotgan obrazlarni zamon va makonidan qat‘i nazar ajdodlari bilan muloqot qilishga yo‘naltiradi. Roman tarkibidagi oddiy bir qishloqdan boshlangan voqelik millatning yaqin va uzoq o‘tmishiga, asotirlari, xalq og‘zidan o‘tib kelayotgan hikoyat va rivoyatlar fonida ajib bir uyg‘unlik kasb etadi. Shuning uchun ham roman syujetida ba‘zan xalq qo‘shiqclariga, Bilga Hoqon bitikclariga murojaat qilinadi, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy asarlari tilga olinadi. Alisher Navoiy, Boburning ijod namunalaridan misollar keltiriladi. Romanning:

“Tong ota boshladi,  
so‘ng uning izidan yer yuzi yorishdi.  
So‘ng quyosh chiqdi, hammayoq yorug‘ bo‘ldi.  
Er yigit emaklab bordi, Tangriga yo‘liqdi...” ,

degan so‘zlar bilan boshlangan epigrafi ham “Irq bitigi”dan olingan. Eng muhimi, shu epigraf romanning oxirida biroz boyitilgan holda, xususan, “Yigit baxt tiladi, Tangri baxt berdi” kabi jumlar qo‘shilgan tarzda takrorlanib keladi. Romanning butun syujeti uchun, voqealar rivoji va ayniqsa, syujet kulminatsiyasi uchun bu ko‘chirmaning ahamiyati katta. Zero, genetik ilm yo‘lida baxt, ezgulik, kashfiyotlar izlayotgan bir yigit edi. U baxt izladi va o‘z baxtini ilmdan topdi. O‘zligini izlagan odam, albatta, o‘zini topadi. Bunday falsafa I.Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari mazmunida, obrazlari tiyatiga ham xosdir. Umuman olganda, syujet modifikatsiyasi, ya‘ni bir tipning boshqasi evaziga boyitilishi hamda o‘zaro almashib kelishi voqealarini yozuvchining maqsadi sari yo‘naltirishga, roman g‘oyasining takomili hamda umuminsoniy mazmun kasb etishiga xizmat qiladi.

Romanda “XXI asr. Kartaxena. Kolumbiya” degan faslda olimning o‘z ilmiy kashfiyoti uchun taqdirlanishi va uning ilm ahliga aytishga “Ezgu so‘z”i beriladi. Unda, jumladan, genetikaning quyidagi fikrlari bayon qilinadi: “Inson, shubhasiz, ulug‘dir. Hatto so‘nggi onini yashayotgan paytida, ajalning qirmizi shafaqlari oxirgi bor yallig‘langanida ham uning bir nafasi bor. U – “Meni kechir”, “Seni yaxshi ko‘raman” yoki “Mendan rozi bo‘lingiz” degan ezgu so‘zlarni ayta olish uchun qoldirilgan nafasdir. Ha, odamzot qalbi o‘lmas, ruhi hamdardlik va shafqat tuyg‘ulariga to‘la ekani bilan muqaddasdir. Shu sababli, barcha urinishlarimiz mana shu yo‘lga – uni ulug‘lashga, sharaflashga va e‘zozlashga yo‘naltirilishi shart!”

Bunday xulosalarni adib genetikaning turli narsalar ustida olib borgan mashaqqatli ilmiy izlanishlari natijasi sifatida taqdim etadi.

Isajon Sulton yaratgan syujet modifikatsiyasini dunyodagi boshqa adiblarning mahoratidan ta'sirlangani bilan mushtarak tahlil etish yaxshi samaralar berishi tabiiy. Zero, adib romanlarining poetik mazmunini, falsafiy mushohadalarni dunyo adabiyotidagi ayrim falsafiy oqimlar bilan taqqoslagan adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov yozadi: "Isajon Sulton bu – qip-qizil ekzintensializm!... Ekzintensializm yo'llari va falsafasiga shaydo bo'lgan Isajon Sultonning yuragi va ong tasavvuri shunday larzali kechinmalardan dunyo va tabiatning kelib chiqishiga nazar tashlamoqchi bo'ladi. Har narsaning ibtido manshaalariga qarashga urinadi". "Manshaa" so'zi asos degan ma'nonani anglatar ekan, demak, adabiyotshunos olim adib o'zi tasvirlayotgan har bir voqea-hodisaning, narsalarning asos-negiziga diqqat qaratganiga urg'u beradi. Haqiqatdan ham, I.Sulton romanlari syujet chizig'ida tasvirlangan har bir mayda unsurlargacha, ularning kelib chiqishlarigacha e'tibor beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent. 2018. –B.260.
2. Rasulov A. Akslar falsafasi. // Isajon Sulton nasri badiiyati. Toshkent. "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2017 yil, 33-bet.
3. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr" nashriyoti. 2010.-B. 230..
4. Kristofer Fort. Isajon Sulton va postmodernizm. /Isajon Sulton nasri badiiyati. Toshkent. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. 2017.-B. 350.
5. Z.Pardayeva. O'zbek romani poetikasi (Hozirgi o'zbek romanlarining tahlili misolida). Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2003 yil. 9-bet.
6. To'xta Boboyev. "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. "O'qituvchi". 2002 yil 217-bet